

O‘RTA MAKTABDA “QISSASI RABG‘UZIY” ASARINI O‘QITISH
BO‘YICHA MULOHAZALAR

Nurzod Norqulov

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek
tili va adabiyoti universiteti o‘qituvchisi*

E-mail: nurzod4100@gmail.com

Annotatsiya: Mumtoz adabiyot namunalarini o‘rganish masalasi o‘rta umumta’lim maktablari kun tartibidagi muhim savoldir. Maqolada umumta’lim maktablarining 11-sinf adabiyot darslarida Nosiriddin Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy” asarini o‘rganish yuzasidan fikr-mulohazalar bildirilgan. Matnni o‘zlashtirishni osonlashtiruvchi dars usullari haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: mumtoz adabiyot, “Qissasi Rabg‘uziy”, payg‘ambar, hikoyat, hadis, hikmatli so‘zlar, jadval.

Jamiyat hayotidagi o‘zgarishlar, texnologiyalarning rivojlanishi, o‘z-o‘zidan, ta’lim tizimiga ham ta’sirini ko‘rsatadi. O‘qitish jarayonidagi yangiliklar yosh avlodning badiiy adabiyot namunalarini yaxshiroq o‘zlashtirishlari uchun xizmat qiladi. Yaxshi natijaga erishish uchun o‘qitishning innovatsion usullaridan samarali foydalanishi zarur bo‘ladi.

O‘rta umumta’lim maktablarida mumtoz adabiyot namunalarini o‘qitish masalalari eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Mumtoz matnni izohlash, sharhlash, lug‘at bilan ishlash nafaqat o‘quvchiga, ba’zan o‘qituvchiga ham qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Xo‘sh, shu o‘rinda qanday yo‘l tutish kerak? Qaysi usullardan foydalanish samarali bo‘ladi?

Keling, Nosiriddin Burhoniddin Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy” asari misolida shu muammoni ko‘rib chiqaylik. Ma’lumki, “Qissasi Rabg‘uziy” payg‘ambarlar haqida hikoya qiluvchi, yosh-u qari sevib o‘qiydigan kitob. 11-sinf adabiyot darsligida asardan parcha sifatida “Uzum hikoyati”, “Yilon va qarlug‘och hikoyati”, “Sulaymonning qarinchg‘a bilan so‘zlashgani” hikoyalari berilgan. XIII asrda yozilganiga qaramay, ushbu asar tilining nisbatan soddaligi bilan kitobxonlarni o‘ziga jalb qilib keladi. Lekin, baribir, yuqoridagi parchalarni tushunish uchun o‘quvchilarga lug‘at bilan ishlash jarayoni foydadan xoli bo‘lmaydi. Buning uchun o‘quvchilarning o‘zlashtirishi qiyin bo‘lgan so‘zlarni “Mosini top” usuli bilan berish mumkin:

So‘zlar	Izoh
Vajh	Asalari hosil qiluvchi modda
Og‘oz	Bo‘ysundirilgan, hukmi ostiga kiritilgan
Nimarsa	Boshlanish, kirishish
Behisht	Chunki

Zanjabil	Fuqaro, xalq, omma
Shinni	G`ing`illash
Salsabil	Jannat
Mo`m	Jannatdagi buloq
Gung	Narsa
G`ingishlamoq	Sabab, bahona
Charoki	Shamol, shabada
Raiyat	Soqov, tilsiz
Base	Ulov, ot, tuya, eshak kabi miniladigan hayvon
Musaxxar	Uzum suvidan tayyorlangan qiyom
Yel	Yetarli
Markab	Ziravor o`simlik

Darslikdagi asar haqida munosabat bildirish o`rinlarida Dovud payg`ambar, Luqmoni hakim haqida ham qissalar borligi haqida ma`lumot berilgan. O`qituvchi o`quvchilarga asarning kitob shaklidagi to`liq ko`rinishini taqdim etsa, maqsadga muvofiq bo`lardi. Buning imkoni bo`lmagan taqdirda, kitobning elektron shaklini o`quvchilarga mustaqil o`qish uchun vazifa sifatida berib, darslikka kiritilmagan qismlari asosida bahs-munozaralar uyushtirishi ham mumkin. Chunki ulardagi g`oyalar o`quvchi-yoshlarga ijobiy ta`sir ko`rsatadi.

Asar asosidagi savol va topshiriqlar qismida quyidagi jadval berilgan:

T/r	Eskirgan so`zlar	Ayrim tovushiga ko`ra farqlanuvchi so`zlar	Arabcha so`zlar	Forscha so`zlar
1				
2				
3				
4				

Fikrimizcha, arabcha va forscha so`zlarni aniqlash va farqlash uchun o`quvchilarga ularning o`ziga xos xususiyatlari haqida ma`lumot berish hamda ularda izohli lug`at bilan ishlash ko`nikmasini shakllantirish muhim. Shu o`rinda “O`zbek tilining izohli lug`ati”dan unumli foydalanishimiz zarur.

Barchamizga ma`lumki, “Qissasi Rabg`uziy”asari mazmuni va g`oyasi bevosita “Qur`oni karim” va “Hadisi sharif”ga bog`liq bo`lgani uchun o`quvchilarga hikoyatlar ma`nosiga mos keladigan hadislardan namuna keltirish vazifasini berish mumkin. Masalan:

Hadislardan namuna	“Qissasi Rabg`uziy”dan parcha
Garchi Xitoyda bo`lsa ham ilmga intilinglar, chunki ilm olishga harakat qilish har bir mo`minga farzdir.	Ani minguncha ma`rifat markabini minganingizda erdi, ko`z yumub ochg`uncha Arshi a`loga borur erdingiz.
Qaysi bir qavm boshlig`i o`z qo`l ostidagi odamlarga xiyonat qilib, ularni aldasa, u qiyomat kuni do`zaxga mahkum bo`ladi.	Hammasining podshohi mandurman. Sizning lashkaringiz orasida poymol bo`lsa, uboli manga bo`lur.
Banda birovning yordami uchun harakat qilar ekan, Tangri ham uning yordamida bo`laveradi.	Man bu zaif holim birla har kecha uxlamay, hamma lashkarimning atrofini aylanib, agar ag`riqi bo`lsa, borib ko`rub sihatligiga munojot qilurman...
Ko`pi mast qiladigan ichimlikning ozidan ham sizlarni qaytaraman.	...Andin mastroq bo`lsa to`ng`izdek yuraklik bo`lub, hech ishdan qo`rqmas, har qism yomon ishlar sodir bo`lur, shayron bergan suvlar fe`lidur.
Kingaki aqlu idrok nasib etilgan bo`lsa, demak, u omadlidir.	Ey Manzara, muncha aql va donishni qaydin bilding? Hamma bildirguchi Haqdir.
Tangri sizlarning tashqi ko`rinishlaringiz yoki molu dunyolaringizga emas, balki dillaringizga va ishlaringizga qarab baho beradi.	
Mol-dunyo uchun musobaqa qilmanglar.	
Hamma ishlaringizda to`g`ri bo`ling, odamlarga muomalada xulqingiz chiroyli bo`lsin!	
Mo`minlarning afzali xulq-atvori yaxshilaridir.	
Kimki bir mo`minni shu dunyodagi biror tashvishidan xalos etsa, Tangri uning oxiratdagi tashvishlaridan xalos etadi.	

Aynan shunday jarayonni hikmatli so‘zlar yoki maqollar vositasida ham bajarish mumkin. O‘quvchilar o‘tgan donishmandlarning fikrlari hamda xalq og‘zaki ijodi namunalari bilan yaqindan tanishadilar hamda qanday odob qoidalariga amal qilish zarurligi haqidagi amallarga roiya qilish ko‘nikmasini o‘zlashtiradi. Misol uchun Alisher Navoiy hikmatli so‘zlarini keltirish mumkin:

Kishi aybing desa, dam urmag‘ilkim, ul erur ko‘zgu,
Chu ko‘zgu tiyra bo‘ldi, o‘zga aybing zohir ayiarmu?

Ulus bo‘lsa ma‘mur bir ganj erur
Ki, andin jahon fathi oson erur.

Biravkim, anga himmat o‘ldi balang,
Erur odam ahli aro arjumand.

Ilm, Navoiy senga maqsud bil,
Emdiki, ilm o‘ldi, amal aylagil.

Bundan tashqari, xalq maqollari vositasida hikoyatlar g‘oyasini tushuntirish uchun o‘tkazilgan o‘yin mashg‘ulotlari ham samarali natija berishi shubhasiz.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, mumtoz adabiyot namunalarini o‘zlashtirish maktab o‘quvchilari uchun og‘ir va yoqimsiz jarayonga aylanmasligi uchun adabiyot fani o‘qituvchisi mumtoz matnlarni imkon darajasida soddalashtirishi, o‘quvchilarga iloji boricha tushunarsiz va qiyin so‘zlar lug‘atini to‘liq taqdim etishi zarur bo‘ladi. Shu bilan birga, asar haqida darslikdagi parchalardan ko‘ra kengroq va ko‘proq ma‘lumotga ega bo‘lishi o‘quvchilarning mumtoz adabiyotga yaxshi munosabatda bo‘lishlariga zamin yaratadi. Kelajak avlodni milliy merosimizdan bahramand qilish hamda ularda mumtoz adabiyotga muhabbat uyg‘otish adabiyot fani o‘qituvchilarning eng asosiy vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Berdak Yusuf. Mumtoz adabiy asarlar lug‘ati. – Toshkent, Sharq, 2010. – 528b.
2. Алишер Навоий. Ҳикматли сўзлар. – Тошкент, 1985. – 144б.
3. Носируддин Рабғузий “Қиссаси Рабғузий”. К.1. – Тошкент: Ёзувчи, 1990. – 240б.
4. Носируддин Рабғузий “Қиссаси Рабғузий”. К.2. – Тошкент: Ёзувчи, 1991. – 272б.
5. Носируддин Рабғузий “Қиссаси Рабғузий”. Насрий баён. ziyouz.com сайти.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I том. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 680б.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II том. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 672б.

8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. III том. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – 688б.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. IV том. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 608б.
10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V том. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 592б.